

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 165 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	



SARGUZASHT TURIZMINI RIVOJLANISHI VA SARGUZASHT TURLARDA TURISTLARNING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSTRUKTOR-GIDLARNING ROLI



Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li

Alfraganus University
Xalqaro turizm menjementi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Gid turizm faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Ekskursiyalar davomida gid umumiy sayohat tajribasini boyitib, yo'l boshchisi sifatida muhim pozitsiyani egallaydi; bu holat ekskursiya muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Xalqaro turizm bozorida gid-ekskursovod xizmati ko'pincha "turizmning kaliti" sifatida talqin etiladi. Gidlar ekskursiyalarni samarali va maroqli o'tkazishda muhim rol o'ynaydi va "customer loyalty" (ekskursant sodiqligi) darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada sifat parametrlari metodologiyasidan foydalanilgan holda instruktor-gidlarning O'zbekiston Respublikasidagi Amirsoy, Beldersoy kabi resortlarda yo'lga qo'yilgan qishki skiing, snowboarding, snowmobiling, snow tubing kabi aktiv turlarni amalga oshirish jarayonida sayyohlarga yo'riqnoma berish, risk omillarini minimallashtirish, sarguzasht turizmini rivojlantirish va ushbu turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashdagi roli o'rganildi. Tadqiqot doirasida mazkur resortlarga tashrif buyurgan 20 nafar sayyoh bilan intervyu o'tkazildi. Olingan natijalar ANOVA dasturi orqali tahlil qilinib, transkripsiya qilindi va kodlashtirildi. Intervyu natijalariga ko'ra instruktor-gidlarning sayyohlar bilan ishlash qobiliyati, instruktorlik darajasi, xorijiy tillarni bilish darajasi, qo'llanmalarni yetkazish usullari, jihozlar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnoma, shuningdek risk omillariga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. Shu asosda instruktor-gidlarning faoliyati, sarguzasht turizmi destinatsiyalaridagi xavfsizlikni boshqarish, instruktorlik ko'rsatmalaridan foydalanish hamda aktiv turlarni samarali va qulay tarzda o'tkazishdagi yondashuvlari aniqlandi. Ushbu tendensiyani rivojlantirish borasida tegishli tavsiya va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: instruktor-gid, gid, yo'l boshchi, sarguzasht turizmi, aktiv turlar, turist xavfsizligi, ekskursiya, gid-ekskursovod, ekskursant.

Abstract: A guide is an important part of tourism activities. On an excursion, a guide takes a leading position, improving the overall travel experience, which is one of the main factors of the success of the excursion. In the international tourism market, the service of a guide is called the "key to tourism". They are the main factor in the tour for the effective and enjoyable conduct of excursions, affecting "customer loyalty". This article, using the methodology of quality parameters, studies the role of instructor-guides in instructing tourists in active tours such as winter skiing, snowboarding, snowmobiling, snow tubing, minimizing risk factors, developing adventure tourism, and ensuring the safety of tourists on adventure tours in resorts such as Amirsoy and Beldersoy in the Republic of Uzbekistan. Interviews were conducted with 20 tourists who visited this resort, and the results were transcribed and coded using the ANOVA program. Based on the results of the interviews, information was gathered on the ability of instructor-guides to work with tourists, level of instruction, language proficiency, methods of delivering applications, equipment and instructions for working with active tours, and risk factors, and the activities of instructor-guides, adventure tourism destinations, safety management, use of instructor instructions, and effective and convenient conduct of active tours. Recommendations and suggestions were developed to develop this trend.

Key words: Instructor-guide, guide, tour leader, adventure tourism, active tours, tourist safety, excursion, tour guide, excursionist.



Аннотация: Гид является важной частью туристической деятельности. Во время экскурсии гид берет на себя роль гида, улучшая общее впечатление от поездки, что является одним из ключевых факторов успеха тура. На международном туристическом рынке услуги экскурсоводов называют "ключом к туризму". Они играют ключевую роль в обеспечении эффективности и удовольствия экскурсий и влияют на лояльность клиентов. В данной статье с использованием методологии показателей качества изучается роль инструкторов-гидов в обучении туристов активным видам отдыха, таким как зимние лыжи, сноуборд, снегоходы, сноутюбинг, минимизация факторов риска, развитие приключенческого туризма и обеспечение безопасности туристов во время приключенческих туров на курортах Амирсой и Бельдерсой в Республике Узбекистан. Были проведены интервью с 20 туристами, посетившими этот курорт, а результаты были расшифрованы и закодированы с помощью программы ANOVA. По результатам интервьюирования была собрана информация об умении инструкторов-проводников работать с туристами, уровне подготовки, владении языком, способах подачи заявок, оборудовании и инструкциях для работы с активными турами, факторах риска, а также о деятельности инструкторов-проводников, направлениях приключенческого туризма, обеспечении безопасности, использовании инструкций инструкторов, эффективном и удобном проведении активных туров. Разработаны рекомендации и предложения по развитию этого направления.

Ключевые слова: Инструктор-гид, гид, руководитель маршрута, приключенческий туризм, активные туры, безопасность туристов, экскурсия, гид-экскурсовод, экскурсовод.

KIRISH

Turizm va mehmondo'stlik industriasida ekskursiya gidlari ekskursantlar va turistik destinatsiyalar uchun qo'riqchilar, ekskursiya himoyachilari, madaniy vositachilar, turizmga barqarorlikni targ'ib qiluvchilar, turistik obyekt tarjimonlari va turistik xatti-harakatlarni shakllantiruvchilar sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, ekskursantlarni mas'uliyatli sayohat xulq-atvoriga yo'naltirib, sarguzashtga boy va unutilmas tajribalar bilan ta'minlashda ham ekskursiya gidlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pgina Yevropa tadqiqotlarida ekskursiya rahbarining uslubi, ichki risklari, hissiy holati, xizmat sifati, maslahat berish darajasi, yashash sharoiti, ish tajribasi va mehnat shartlariga alohida e'tibor qaratilgan. Turizm industriasida gid faoliyati ko'pincha turistik munosabatlarga yo'naltirilgan bo'lib, ekskursiya va turistlar xavfsizligini muvozanatlash, tarjimonlik qilish orqali ekskursantlar hamda mahalliy jamoa bilan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, turizm bozorining standartlashtirilmaganligi, manfaatlar nomutanosibligi, ijtimoiy ta'minot tizimining nomukammalligi hamda turistik talabni noto'g'ri tahlil qilish holatlari gidlarning xavfsiz va munosib ish muhitiga ega bo'la olmasligiga olib kelmoqda [1].

Gid-ekskursivodlik qadimiy kasblardan biri bo'lib, dastlab gidlar tog'li hududlar, shaharlar yoki tabiiy resurslarga yo'l topish uchun yollanardi. Ular yo'l ko'rsatuvchi sifatida xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu rol rivojlanib, yangi talab va maxsus ekskursiyalarga moslashdi. Sarguzasht turizmi taraqqiy etgan sari instruktor-gidlarning roli ham ortdi. Biroq, zamonaviy sarguzasht turizmi sharoitida rahbarlik rollarining tabiati va murakkabligini chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas.

Ushbu maqolada aniqlangan beshta turistik o'lchov asosida sarguzasht turizmi faoliyatida turistlar xavfsizligini ta'minlash masalasi sifat parametrlari metodologiyasi yordamida tahlil qilinadi. Ayniqsa, resortlarda yo'lga qo'yilgan skiing, snowboarding, snowmobiling, snow tubing kabi aktiv turlar doirasida instruktor-gidlarning turistlarga yo'riq berish, risk omillarini minimallashtirish, xavfsizlikni boshqarish va turizm tajribasini samarali tashkil etishdagi roli o'rganiladi.

Shu nuqtayi nazardan, aktiv sarguzasht turlarga asoslangan tajribalarda turistlar xavfsizligini ta'minlash murakkab jarayon bo'lib, instruktor-gidlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xavf omillarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday tajribalarni baholash instruktor va turistlarning jismoniy tayyorgarligi hamda o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi. Biroq ushbu maqolada tadqiqot natijalariga ko'ra instruktorlarning harakati va tajribasi risklarni boshqarishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [2].

Zamonaviy turizm va mehmondo'stlik sohasida sarguzasht turizmi – ya'ni ekstremal, faol dam olish turlari tobora ommalashib bormoqda. Ushbu yo'nalish sayyohlarni noodatiy, xavfli va yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan muhitlarga jalb etadi. Bunday sharoitlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlash dolzarb muammo hisoblanadi. Amaliyotda esa xavfsizlik choralarining yetarlicha kafolatlanmasligi, instruktor-gidlarning malaka va tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, xavfli holatlarga to'g'ri munosabat bildirish uchun yagona standart va tizim yo'qligi kabi kamchiliklar mavjud [3].

Shu sababli, sarguzasht turizmini rivojlantirish jarayonida instruktor-gidlarning roli, ularning kasbiy tayyorgarligi, xavfsizlikni ta'minlashdagi vakolat va mas'uliyatlari hamda ushbu sohada mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, turistlarning hayoti va sog'lig'i xavf ostida bo'lgan holatlarda instruktor-gidlarning ko'radigan choralar, xavfsizlik protokollariga rioya etish darajasi va buning natijasida turistlar ishonchini qozonish kabi omillar hanuz to'liq ilmiy o'rganilmagan [4].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sarguzasht turizmi zamonaviy turizmning eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, ekstremal tajribalarni izlovchi sayyohlar oqimini jalb etadi. Mazkur turizm turi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda xavfsizlik omili va instruktor-gidlarning roli alohida e'tiborga olinadi. John Swarbrooke sarguzasht turizmini "yangi his-tuyg'ular, jismoniy faollik va nazorat ostidagi xavf uyg'unligi" sifatida tavsiflab, bu yo'nalishdagi xavfsizlik strategiyalarini chuqur tahlil qilgan. U sarguzasht faoliyatlarda ishtirokchilarning psixologik holatini boshqarishda instruktorlarning tayyorgarligi hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi.

Buckley tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sarguzasht turizmi doirasidagi xavf darajasi va xavfsizlik texnologiyalari o'rtasidagi muvozanatni tahlil qiladi. U sarguzasht turizmidagi tijoriy operatorlar tomonidan qo'llaniladigan xavfsizlik standartlarini tizimli o'rgangan hamda instruktorlarning professional malakasi jarohatlanish holatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynashini asoslab bergan. Shuningdek, Pomfret ekstremal faoliyatlarda ishtirok etayotgan turistlarning tajriba darajasi va shaxsiy xatti-harakatlarini boshqarishda instruktorlarning ijtimoiy-pedagogik ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan.

Turoperatorlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun xavfsizlik protokollari, ya'ni marshrutlarni baholash, avvalo favqulodda holatlar rejasini ishlab chiqish va xavf tahlili bo'yicha tavsiyalar bo'yicha Ewert va Hollenhorst tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyat asosiy manba sifatida qaraladi. Ular instruktorlarning liderlik ko'nikmalari, favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va psixologik barqarorligi xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy mezonlar qatoriga kirishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Hudson va Beedie o'z ishlarnalarida sarguzasht turizmi ishtirokchilari uchun xizmat ko'rsatish madaniyati va xavfsizlikni ta'minlashda shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif etadi. Ularning fikricha, faqat texnik bilimlar emas, balki kommunikatsion va empatik yondashuv ham turistlarning xavfsizligi va mamnunligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro Tog' Gidlari Federatsiyasi (IFMGA) va boshqa sertifikatlovchi tashkilotlar tomonidan belgilangan standartlar asosida instruktor-gidlarning malakasini baholash bo'yicha ko'plab metodik qo'llanmalar mavjud [8], [9], [10]. Ushbu xalqaro tajriba O'zbekiston sharoitida ham amaliy tizim shakllantirishga zamin yaratadi. Ayni vaqtda, mamlakatda bu boradagi adabiyotlar cheklangan bo'lib, instruktor-gidlar faoliyatini yorituvchi yondashuvlar ko'proq nazariy xarakterga ega, xavfsizlik tizimi esa amaliy model sifatida hali to'liq shakllanmagan.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida quyidagi research gap (ilmiy bo'shliqlar) aniqlandi:

Sarguzasht turizmining xavfsizlik tizimi va unga oid milliy standartlar to'liq ishlab chiqilmagan;

Instruktor-gidlarning xavfsizlikdagi roli amaliy asosda yetarlicha o'rganilmagan;

O'zbekiston sharoitida sarguzasht turlarini xavfsiz tashkil etish bo'yicha tizimli yondashuvlar mavjud emas;

Xavfsizlik va instruktor malakasi o'rtasidagi bog'liqlikni statistik yoki empirik tadqiqotlar orqali tahlil qiluvchi ishlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLGIYASI


Ushbu maqolada sifat parametrlari metodologiyasidan foydalanilgan holda instruktor-gidlarning O'zbekiston Respublikasidagi Amirsoy, Beldersoy kabi resortlarda yo'lga qo'yilgan qishki skiing, snowboarding, snowmobiling, snow tubing kabi aktiv turlarni amalga oshirishda sayyohlarga instruksiya berish, risk omillarini minimallashtirish, sarguzasht turizmini rivojlantirish va ushbu turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashdagi roli o'rganildi. Tadqiqot doirasida mazkur resortlarga tashrif buyurgan 20 nafar sayyoh bilan intervyu o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar ANOVA dasturi orqali tahlil qilinib, transkripsiya qilindi va kodlashtirildi. Intervyu natijalariga ko'ra instruktor-gidlarning sayyohlar bilan ishlash qobiliyati, instruktorlik darajasi, xorijiy tilni bilish darajasi, qo'llanmalarini yetkazish usullari, jihozlar va aktiv turlar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomalar, shuningdek risk omillariga oid ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra instruktor-gidlar faoliyati, sarguzasht turizmi destinatsiyalarida xavfsizlikni boshqarish, instruktorlik ko'rsatmalaridan foydalanish va aktiv turlarni samarali hamda qulay tarzda tashkil etish jihatlari aniqlandi. Ushbu tendensiyaning yanada rivojlantirish maqsadida amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gidlar ekskursiyalarni madaniy jihatdan qiziqarli va mazmunli o'tishini ta'minlab, ma'lumotlarni to'g'ri va mas'uliyat bilan yetkazish vazifasini bajaradilar. Ular turistlarga ekskursiyalar davomida tarixiy, arxeologik, arxitektura, ekologiya hamda xavfsizlik bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi, madaniy obidalar haqida hikoya qiladi, shuningdek, dasturga kiritilgan aktiv turistik faoliyatlarda mavjud risk omillarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Bular gid kasbining asosiy kasbiy talablaridan hisoblanadi. Odatda ekskursiya yo'l boshchisi bir vaqtning o'zida ekskursiya menejeri, animator, yetakchi, qo'riqchi, tarjimon va hikoyachi rollarini bajaradi. Turistlarga hamrohlik qiluvchi bunday mutaxassislar – gidlar, ayni paytda, xavfsizlikni ta'minlash, turistik



yo'riqnomalar va instruktsiyalar orqali sayyohlarning destinatsiyalardagi umumiy tajribasini boyitishda muhim rol o'ynaydi (1-rasm) [5].



1-rasm. Turizm xavfsizlikni instruktor-gidlar orqali tizimli ta'minlash modeli¹

Sarguzasht turizmi ekstremal sharoitlarda kechadigan, yuqori darajadagi hissiy va jismoniy faollikni talab qiluvchi faoliyat turi sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotlarda ushbu turizm ikki asosiy guruhga – “hard” (qiyin, xavfli) va “soft” (yumshoq, xavfi nisbatan past) sarguzasht turlariga ajratiladi. Bu tasnif mazkur tadqiqotda tur xavfi darajasi va instruktor-gid ishtirokining zarurligini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi.

O'zbekistonda sarguzasht turizmi sohasida hali yetarli ilmiy izlanishlar mavjud bo'lmaganda, ayrim manbalarda turizmni diversifikatsiyalash, jumladan, tog', g'or, chang'i, rafting kabi turlarni joriy etish zarurligi haqida fikrlar bildirilgan [6], [7].

Xavfsizlik turizmning ajralmas komponenti hisoblanib, turli xavf-xatarlar (tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar, inson omili) tasnifini o'z ichiga oladi. Turistik xizmatlar sifati mezonini sifatida xavfsizlikka oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, aynan sarguzasht turizmi kontekstida ushbu masalaga yondashuv yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolada xavfsizlikni instruktor-gidlar orqali tizimli ta'minlash modeli ishlab chiqildi. Ushbu model sarguzasht turizmidagi xavfsizlikni kompleks boshqarish, baholash va takomillashtirish uchun mo'ljallangan.

Model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Ta'limiy-tayyorlov mexanizmlari – instruktor-gidlarning kasbiy malakasini oshirish, favqulodda holatlarga tayyorlash, xavfsizlik protokollarini o'rgatish orqali potentsial xavflarning oldini olish.

Amaliy nazorat va reaksiya – tur boshlanishidan oldin xavflarni baholash, real vaqt rejimida kuzatish, shuningdek, tezkor va oqilona qarorlar qabul qilish orqali xavfli holatlarni boshqarish.

Monitoring va baholash – har bir tur yakunida instruktor va tashkilotchilar faoliyatini audit qilish, turistlar fikrlarini yig'ish va statistik tahlil asosida natijalarni baholash.

Takomillashtirish va tavsiyalar – xavfsizlik tizimi samaradorligini oshirish uchun mavjud protokollarni yangilash, yangi standartlar ishlab chiqish va doimiy metodik takomillashtirish.

Instruktor-gidlar nafaqat yo'l ko'rsatuvchi, balki xavf-xatarni boshqaruvchi, kommunikator va yetakchi sifatida ham xizmat qiladi. Ularning psixologik tayyorgarligi, stressga chidamliligi va birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalari xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

1 Muallif ishlanmasi



Instruktor-gidlar turistlar xavfsizligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekani aniqlangan. O'tkazilgan so'rovnoma va amaliy kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, turistlarning 82 foizi sarguzasht turlarini tanlashda instruktor-gidlarning malakasi va ishonchligini eng muhim omil sifatida qayd etgan. Amaliy holatlar tahliliga ko'ra, tajribali va sertifikatlangan instruktorlar favqulodda vaziyatlarda tez va samarali qarorlar qabul qilgan bo'lsa, tayyorgarligi past instruktorlar ziddiyatli vaziyatlarda muammolar keltirib chiqargan.

Mavjud turistik firmalarning aksariyatida instruktorlar uchun doimiy treninglar va attestatsiya tizimi mavjud emasligi, xavfsizlik protokollarining rasmiy va qat'iy shaklda yuritilmasligi kuzatilgan. IFMGA (Xalqaro tog' gidlari federatsiyasi), Adventure Travel Trade Association kabi tashkilotlar tajribasiga tayanib, O'zbekistonda instruktor-gidlar faoliyatini tartibga solish, sertifikatlash va xavfsizlik protokollarini milliy miqyosda joriy etish zarurligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari sarguzasht turizmining O'zbekistonda turizmning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatmoqda. Biroq ushbu yo'nalishda xavfsizlikning tizimli ta'minlanmasligi sarguzasht turlar sifatida hamda turistlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, instruktor-gidlar xavfsizlik boshqaruvida markaziy rol o'ynaydi. Ular nafaqat tur rahbari, balki murabbiy, psixolog, birinchi yordam ko'rsatuvchi va risk-menejer sifatida ham harakat qilishlari talab etiladi.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan "instruktor-gidlar orqali xavfsizlikni tizimli boshqarish modeli" quyidagi samaralarga erishishga imkon beradi:

- sarguzasht turlar sifatida va ishonchligini oshirish;
- turistlar xavfsizligini kafolatli ta'minlash;
- xodimlar malakasini doimiy ravishda oshirish orqali favqulodda vaziyatlarda tezkorlikni ta'minlash;
- milliy turizm brendiga ijobiy ta'sir ko'rsatish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sarguzasht turizmi bugungi kunda global miqyosda, xususan, O'zbekistonda turizmning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu sohada turistlar xavfsizligini ta'minlash masalasi esa ustuvor vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xavfsizlik darajasi bevosita instruktor-gidlarning malakasi, tayyorgarligi va professionalligi bilan chambarchas bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sarguzasht turizmi doirasida xavfsizlikni tizimli boshqarish mexanizmlari hali yetarlicha shakllanmagan. Instruktor-gidlar faoliyati esa ko'pincha rasmiy standartlarsiz olib borilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida ma'lum bo'ldiki, xavfsizlikni ta'minlashda instruktor-gidlarning roli nafaqat yo'l ko'rsatishda, balki favqulodda holatlarda samarali qaror qabul qilish, birinchi yordam ko'rsatish, psixologik qo'llab-quvvatlash va risklarni oldindan baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Sarguzasht turizmida instruktor-gidlarning xavfsizlikni ta'minlashdagi roli va mas'uliyati kompleks tarzda tahlil qilindi;

O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi xavfsizlik choralari taqqoslab o'rganildi;

Turistlar hayoti va sog'lig'i uchun muhim bo'lgan xavfsizlik omillariga ta'sir etuvchi instruktor-gidlar faoliyatiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

Soha uchun yangi yondashuv sifatida instruktor-gidlar malakasini oshirish orqali xavfsizlikni tizimli boshqarish konsepsiyasi ilgari surildi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda xulosa qilinadiki, xavfsizlikni oshirishning eng maqbul yo'li – bu "instruktor-gidlar orqali xavfsizlikni tizimli boshqarish modeli"ni ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. Ushbu model ta'lim, monitoring, xavf-xatarlarni baholash va takomillashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi hamda sarguzasht turizmini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Tavsiya etiladigan amaliy chora-tadbirlar:

Sarguzasht turizmi tushunchasi va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish;

Sarguzasht turlarda yuzaga keladigan xavf-xatarlar va ularning turlarini tizimli tahlil qilish;

Instruktor-gidlar tomonidan bajariladigan funksional vazifalar va ularga qo'yiladigan kasbiy talablarni aniqlash;

Turistlar xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlar rolini amaliy misollar asosida tahlil qilish;

Xavfsizlikni oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan mexanizmlar, metodikalar va strategik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Yuma, Conceptualizing the adventure tourist as a cross-boundary learner. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 47, 100795 (2024). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2024.100795>
2. A. Doran, G. Pomfret, E. A. Adu-Ampong, Mind the gap: A systematic review of the knowledge contribution claims in adventure tourism research. *Journal of Hospitality and Tourism Management*. 51, 238251 (2022). <https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2022.03.015>



3. 3. C. A. Hunt, L. C. Harbor, Pro-environmental tourism: Lessons from adventure, wellness and ecotourism in Costa Rica. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 28, 100202 (2019). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2018.11.007>
4. 4. C. Liu, H. T. Chong, Social media engagement and impacts on post-COVID-19 travel intention for adventure tourism in New Zealand. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 44, 100612 (2023). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2023.100612>
5. 5. D. Zhu, H. Xu, Novice tourists' play experience in commercial outdoor adventure tourism: The perspective of reversal theory. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 39, 100529 (2022). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2022.100529>
6. 6. G. Pomfret, Conceptualising family adventure tourist motives, experiences and benefits. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 28, 100193 (2019). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2018.10.004>
7. 7. G. Pomfret, M. Sand, C. May, Conceptualising the power of outdoor adventure activities for subjective well-being: A systematic literature review. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*. 42, 100641 (2023). <https://doi.org/10.1016/j.jort.2023.100641>
8. 8. H. Hung, Ch. CheWu, Effect of adventure tourism activities on subjective well-being. *Annals of Tourism Research*. 91, 103147 (2021). <https://doi.org/10.1016/j.annals.2021.103147>
9. 9. I. Janowski, S. Gardiner, A. Kwek, Dimensions of adventure tourism. *Tourism Management Perspectives*. 37, 100776 (2021). <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2020.100776>
10. 10. J. Hall, K. M. Brown, Creating feelings of inclusion in adventure tourism: Lessons from the gendered sensory and affective politics of professional mountaineering. *Annals of Tourism Research*. 97, 103505 (2022). <https://doi.org/10.1016/j.annals.2022.103505>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
